

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 32763,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 107,0 ming kishiga yoki 0,3 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 16583,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,6 %), qishloq aholisi soni 16180,7 ming kishini (49,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-mart


- Aholi soni **107,0 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **147,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- **37,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **52,1 mingta nikoh** va **8,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)




Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 aprel holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand viloyatida 3733,7 ming kishini (respublika aholisi sonidagi ulushi 11,4 %ni) va Farg'ona viloyatida 3631,0 ming kishini (11,1 %), aksincha eng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida 818,4 ming kishini (2,5 %) va Navoiy viloyatida 961,3 ming kishi (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Surxondaryo viloyatida 2,1 %ga, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida 1,9 %ga, Jizzax, Namangan viloyatlarida va Toshkent shahrida 1,8 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Toshkent viloyatida 1,1 %ni, Qoraqalpog'iston Respublikasida va Buxoro viloyatida 1,4 %ni tashkil etdi.




Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 147,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,2 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 18,3 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Samarqand viloyatida (18,9 promilledan 20,1 promillega) va Toshkent (15,7 promilledan 16,6 promillega) shahrida sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Sirdaryo (19,5 promilledan 18,0 promillega) va Xorazm (16,9 promilledan 16,1 promillega) viloyatlarida kuzatildi.

Jami tug'ilganlarning 32,1 %i onaning 1-farzandi, 36,8 %i onaning 2-farzandi va 31,1 %i onaning 3-va undan yuqori farzandlariga to'g'ri kelmoqda.

Onaning tug'ish tartibi bo'yicha tug'ilganlar sonig taqsimlanishi (jami tug'ilganlarga nisbatan, %da)



Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qiz bolalar:
69,9
ming nafar



O'g'il bolalar:
77,1
ming nafar

2018 yilning yanvar-mart oylarida jami 147,0 ming nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, shundan onasining yoshi bo'yicha tug'ilganlarning 55,8 ming nafari (jami tug'ilganlarga nisbatan 38,0 %) 20-24 yoshlardagi ayollar, 51,6 ming nafari (35,1 %) 25-29 yoshlardagi ayollar, 26,6 ming nafari (18,1 %) 30-34 yoshlardagi ayollar hissasiga to'g'ri kelgan.

Demografik holat


Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 37,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 5,0 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Toshkent viloyatida (5,6 promilledan 6,1 promillega) va Toshkent shahrida (6,9 promilledan 7,0 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Farg'ona (5,0 promilledan 4,4 promillega), Xorazm (4,6 promilledan 4,0 promillega), Andijon (5,7 promilledan 5,2 promillega) va Namangan (5,0 promilledan 4,5 promillega) viloyatlarida kuzatildi.

Jami vafot etganlarning 6,7 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichik yoshdagilarga (2017 yilda 7,4 %), 24,4 %i mehnatga layoqatli yoshdagilarga (2017 yilda 25,7 %), 68,9 %i mehnatga layoqatli yoshdan katta yoshdagilar (2017 yilda 66,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida vafot etganlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,5 ming kishiga kamaygan.


Vafot etganlar



Erkaklar:
20,7 ming
kishi

Ayollar:
17,1 ming
kishi

Asosiy yosh guruhlari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)




Demografik holat

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,4 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,0 %i o'simtalardan, 5,5 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,6 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 1,7 ming nafarni tashkil etib, ularning 59,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 17,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 13,6 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,7 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,0 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,3 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 109,2 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 3,1 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 106,1 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
109,2 ming kishi

Demografik holat




Nikoh va nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 52,1 ming nikoh va 8,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,5 va 1,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (122,2 %), Farg'ona (114,9 %), Jizzax (113,3 %), Andijon (112,8 %) viloyatlariga va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (113,5 %) to'g'ri kelmoqda.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (125,0 %), Namangan va Qashqadaryo (120,0 %), Andijon (112,5 %) viloyatlariga va Toshkent shahriga (111,1 %) to'g'ri kelmoqda. 2017 yilning mos davriga nisbatan kamayishi Navoiy (33,3 %), Xorazm (25,0 %) va Buxoro (20,0 %) viloyatlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida nikoh tuzish va nikohdan ajralish koeffitsiyenti
(2018 yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Demografik holat



Poytaxtdagi demografik holat.

O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 2475,9 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 11,0 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sgan.

2018 yilning yanvar-mart oylarida 10,1 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 16,6 promilleni tashkil etib, 2017 yilga nisbatan 0,9 ga (2017 yilning mos davrida - 15,7 promille bo'lgan) o'sdi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 143 nafarini 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 7,0 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 ga o'sdi (2017 yilning mos davrida - 6,9 promille bo'lgan).

Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 5,8 ming kishini tashkil etib va 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,6 ga o'sishi (2017 yilning mos davrida 5,2 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.

FHDYO organlarida 2018 yilning yanvar-mart oylarida 3,1 mingta nikoh va 1,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,0 promilleni tashkil qilib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 ga o'sdi (2017 yilning mos davrida - 4,9 promille bo'lgan).



Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,6 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan o'zgarishsiz (2017 yilning mos davrida 1,6 promille bo'lgan) qoldi.

Demografik holat


Migratsiya. 2018 yil yanvar-mart oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 45,1 ming kishini (44,5 ming kishi respublika hududlaridan, 0,6 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 47,3 ming kishini (44,5 ming kishi respublika hududlariga, 2,8 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 2,2 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 4,4 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	41,8	45,1
Ko'chib ketganlar	46,2	47,3
Migratsiya saldosini	- 4,4	- 2,2

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent (minus 1,1 ming kishi), Buxoro (minus 0,8 ming kishi) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (minus 0,7 ming kishi) qayd etildi.


O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning taqsimlanishi (2018 yil yanvar-mart oylarida, jami xorijdan ko'chib kelganlarga nisbatan, %da)



Doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni **604 kishi**



O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning taqsimlanishi (2018 yil yanvar-mart oylarida, jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan, %da)



Doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni **2807 kishi**

